- 8.Mudir – maktabgacha ta`lim tashkiloti rahbari
- 9.Xalq ta`limi bo`limlari va ularning tuzulishi
10. Xalq bo`limlari va maktabgacha ta`lim tashkilotlarini nazorat qilish
- 11.Mudiraning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishi
- 12.Maktabgacha ta`lim bo`yicha metodik ishlarni tashkil qilish
- 13.Kabinet kutubxonasi va bibliografik ishlar
- 14.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya berishning o`ziga xosliklari
- 15.Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta`lim berishda aqliy tarbiya vazifalari
- 16.Maktabgacha ta`lim yoshdagи bolalarning estetik rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlar
- 17.Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyalari
- 18.”O`zbekiston Respublikasida uzlusiz iqtisodiy ta`lim – tarbiya konsepsiysi” va uning vazifalari
- 19.Bolalarga ekologik tarbiya berishda kuzatish va tushuntirish metodlarining o`rni
- 20.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`limni tashkil etishda tarbiyachining o`rni
- 21.Maktabgacha ta`lim tashkilotida o`yin orqali mehnatga o`rgatish
- 22.Pedagogik jarayonlarni rejalashtirish bosqichlari
- 23.Oila, uning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni
- 24.Maktabgacha ta`lim muassasasi va oila hamkorligi
- 25.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarining hamkorlikka doir ish hujjatlarini o`rganish
- 26.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini tekshirishi bo`yicha tematik va yaxlit tekshirish akt loyihasini ishlab chiqish
- 27.Maktabgacha tarbiyani rejalashtirish va moliyaviy ta`minlash
- 28.Mudira – maktabgacha ta`lim tashkilotining rahbari
- 29.Xalq ta`limi bo`limlari faoliyati
- 30.Xalq ta`limi bo`limlari va maktabgacha tarbiya tashkilotlarini nazorat qilish
- 31.Ta`lim metodlarini amalga oshirishga qo`yilgan talablar
- 32.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ko`rgazmali metodning o`rni va ahamiyati
- 33.Bolalarni rivojlantirishda o`yining o`rni
- 34.”Ilk qadam” tayanch dasturi asosida tashkil etish
- 35.O`yin va o`yinlarni tashkil etish metodikasi
- 36.Maktabgacha ta`lim tashkiloti menejmenti va uning turlari
- 37.Davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlarining o`ziga xosliklari
- 38.”Maktabgacha ta`lim to`g`risidagi” Nizomga muvofiq maktabgacha ta`lim tashkiloti turlari va ularga tasnif
- 39.Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va uning mohiyati
- 40.Kadrlar tayyorlashning milliy modeli va uning o`ziga xos xususiyatlari.
- 41.O`zbekistonda maktabgacha ta`lim muassasalari turlari.
- 42.An`anaviy MTMlar faoliyati.
- 43.Xonardon MTMlarini tashkil etish.
44. Bog`cha-maktab majmualari faoliyati .
- 45.Nodavlat MTMlari faoliyati haqida.
- 46.Savodxonlik markazlari vazifalari.
- 47.Shanba-yakshanbalik guruhlari.
- 48.Maktab qoshidagi qisqa muddatli guruxlar faoliyati haqida.

49. MTMlar faoliyatini tartibga solish va nazorat.

50.O‘zbekistonda Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom,tuzilishi va mazmuni

### ***Kurs ishini tashkillashtirish***

Kurs ishiga rahbarlik talabaga topshiriq berishdan boshlanadi.

Ishi topshirig‘ini berishda asosiy bosqichlarni bajarish vaqtłari ko‘rsatilgan jadval tavsiya qilinadi. Kurs ishilarini taqdim etish muddatlari OTM rahbariyati tomonidan mazkur yo‘nalish o‘quv rejasiga mos holda belgilanadi.

Kurs ishi topshirig‘i ish rahbari imzosi bilan beriladi, kafedra jurnalida berilgan kun sanasi qayd qilinadi.

Kurs ishining ahamiyati, unga qo‘yiladigan talablar, amaliy qismining tarkibi va ishini rasmiylashtirish, topshiriqni bajarish bo‘yicha umumiy topshiriqlar, uning hajmiga bo‘lgan talablar haqidagi ma’lumotlar mazkur fan bo‘yicha kirish ma’ruzasi o‘qilganda tushuntiriladi.

Kurs ishi, zaruriy uslubiy qo‘llanmalar, ma’lumotnomalar, maxsus adabiyotlar va kurs ishi namunalari bilan ta’minlangan maxsus tajriba maydonchalarida (MTM ) va auditoriya xonasida bajariladi.

### ***Kurs ishining rahbarlari oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:***

- ✓ talabaga kurs ishini bajarishda bevosita rahbarlik qiladi.
- ✓ raxbar kurs ishining rejasini talaba bilan birgalikda tuzadi va maqsadini aniqlab, talabaning ijodiy izlanishlarini mazkur rejaga muvofiqlashtirishga yordam beradi.
- ✓ talaba bilan birgalikda ilmiy tadqiqot usullarini aniqlaydi, o‘tkazilishi zarur bo‘lgan eksperimentlar metodikasini, o‘tkazilishi muddatlarini muhokama etadi.
- ✓ rahbar talaba bilan birgalikda kurs ishini bajaralishi jarayonini taxlil qiladi, u tomondan ishlataladigan ilmiy atamalar, shartli belgi va simvollarning qo‘llanilish tartibga rioya qilinishini nazorat qilib boradi.

Kurs ishlari amaldagi me’yoriy talablari asosida tayyorlanadi va bu talabaning kelgusida ilmiy ishlarini bajarish malaka va ko‘nikmalarini to‘la shakllantirishga yordam beradi.

Rahbarlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va yozma ravishda xulosalangan kurs ishlari semestrдagi reyting sessiyasidan 10 kun oldin kafedraga topshiriladi. Kafedra mudiri kurs ishni taqriz qilish uchun dotsent yoki o‘qituvchiga topshiradi.

## NAMUNA

### **MAVZU: MAK TABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA TA`LIM-TARBIY ISHLARNI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISH**

#### **REJA:**

##### **KIRISH:**

**I bob. MAK TABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA TA`LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI  
REJALASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

I.1.Pedagogik jarayon-rejalahshtirish sohasi sifatida

I.2.Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalahshtirish vazifalari

**II bob..MAK TABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA TA`LIM-TARBIYAVIY  
ISHLARNI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISHNING AMALIY SHART-  
SHAROITLARI**

II.1.Rejalahshtirishga qo`yiladigan talablar

II.2.Turli yosh guruhlarda tarbiyaviy ishlarni rejalahshtirish xususiyatlari.

II.3. Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalahshtirish va hisobga olishga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi.

##### **XULOSA**

##### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

##### **ILOVA**

#### **KIRISH**

**Mavzusining dolzarbliji.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qildi. (keyingi o`rinlarda Dastur deb yuritiladi):

2017-2021-yillarda maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash bo`yicha qisqa muddatli guruhlarni tashkil qilishning asosiy parametrlari 4 ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

Dasturning asosiy maqsadli vazifalari va yo`nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;
- maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida 5-6 yoshdagи bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash bo`yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhnini tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta`lim muassasalariga pedagog

kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

Xuddi shu maqsadning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lismiz tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lismiz muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lismiz muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lismiz muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismiz vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash bo'yichi farmoyish qabulqilindi.

"Pedagogik jarayon" tushunchasi hali umumiy pedagogikada ham, Maktabgacha ta'limda boshqaruva menejmentda ham o`zining to`liq ifodasini topmagan. Umumiy pedagogikada pedagogik jarayon ta'lismiz-tarbiya jarayonining sinonimi deb qaraladi. Bunda u asosiy tarkibiy qismlari tarbiya va rivojlantirish birligidagi o'qitish bo`lgan yaxlit jarayon deb qaraladi. Pedagogik jarayonni va uni harakatlantiruvchi kuchlarning asosiy qonuniyatlarini topishga ham urinib ko`rilgan.

Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilishi va shakllari rivojida namoyon bo`luvchi o`zgaruvchanlikdir. Maktabgacha ta'lismiz muassasalaridagi pedagogik jarayon maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish ularni jismoniy, aqliy, ma'naviy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishga yo'llangan. Bu vazifalarni ro`yobga chiqarish pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining xilma-xil turlari - o`yin, turmush, mehnat, o`quv, oddiy badiiy va hokazo faoliyatları orqali ta'minlanadi. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vosita xizmatini o'taydi va ayni bir vaqtida bolalar egallaydigan mazmun ham hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning tashkil etilishi ilk maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xos bo`lgan umumiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhdagi shuningdek, butun bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonni o`zgaruvchanligini belgilaydi.

Bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o`ziga xosligi bilan farqlanadi. Bolalarni uyuşdırishning umumiy va yakka shakllari o`zgaruvchanlikgi va xilma-xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir yosh guruhida rejalshtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi. Rejalshtirishning maqsadi - "Bolalar bog`chasi ta'lismiz-tarbiya dasturi" ning bajarilishini ta'minlashdir.

**Mavzusining o`rganilganlik darajasi.** Maktabgacha ta'lismiz muassasalari ta'lismiz-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhlaridagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga

fiziologlar, psixologlar, pedagoglar (E.I.Tixeeva, E. A. Flerina, A. P. Usova, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina va boshqalarning) tadqiqotlari asos bo`lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning bir qator umumiy tizimlarni ishlab chiqqan.

Z.Y.Ibrohimova tomonidan tayyorlangan Badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo`yicha mashg`ulotlar ishlanmalari va xrestomatiyalardan, Z.A.Rahmonqulova tomonidan “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasav-vurlarni shakllantirish” bo`yicha kichik, o`rta, katta va muktabga tayyorlov guruhlari uchun ishlab chiqilgan metodik qo`llanmalardaushbu mavzu yuzasidan fikr va mulohazalar o`z aksini topgan.

**Ishning maqsadi.** Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olishga doir muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va shu muammoga oid amaliy metod va vositalar tizimini ishlab chiqish.

**Ishning obyekti.** Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olish faoliyatiga asoslangan o`quv-biluv va tarbiya jarayoni.

**Ishning predmeti.** Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olish jarayonining shakl va vositalar.

**Ishning vazifalari.** Mavzuga oid ilmiy, metodik, pedagogik, psixologik hamda tarixiy-falsafiy manbalarni o`rganish, tahlil qilish;

- maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olishning dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;
- pedagogik jarayonnig rejalashtirish sohasidagi asasiyligini ko`rsatib bera olish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish vazifalarini yoritib berish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olishning amaliy shart-sharoitlari qaydetib o`tish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olishga qo`yiladigan davlat talablarini ochib berish;
- turli yoshdagi bolalar guruhlarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish xususiyatlarini ko`rsatib berish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olish bo`yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Ishning metodlari.** Ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish va umumlashtirish, anketa, test, mashq, pedagogik tajriba natijalarini matematik-statistik tahlil qilish.

**Ishning metodologik asoslari.** O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta`lim to`grisida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Prezident farmon va qarorlari, “Bolajon” tayanch dasturi va O`zbekiston Respublikasi boshqaruv organlarining me`yoriy hujjatlari.

**Ishining ilmiy yangiligi.** mактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш ва ҳисобга олиш яройони муаммосининг илмиy-наzariy асосларини юритиб берилди;

- маvзуга oid илмиy, методик, педагогик, psixologik hamda tarixiy-falsafiy manbalarni o`рганиб, tahlil qilindi;
- мактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш ва ҳисобга олишning dolzarb педагогик muammo ekanligi асослаб берилди;
- педагогик яройонниг рејалаштириш соҳасидаги асасиyligi ko`rsatib берилди;
- мактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш vazifalari юритиб берилди;

**Ishining ilmiy-amaliy ahamiyati.** - мактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш ва ҳисобга олишning amaliy shart-sharoitlari qayd etib o`tildi;

- мактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш ва ҳисобга олишга qo`yiladigan davlat talablarini ochib берилди;
- turli yoshdagi bolalar guruhlarida tarbiявияни ишларни рејалаштириш xususiyatlari ko`rsatib берилди;
- мактабгача та`лим муассасаларидаги та`лим-тарбиявияни ишларни рејалаштириш ва ҳисобга олиш bo`yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Ishining tuzilishi.** Kirish, ikki bob, besh fasl, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovadan iborat.

## I BOB

### MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA TA`LIM-TARBIYAVIY ISHNI REJALASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

#### I.1.Pedagogik jarayon-rejalashtirish sohasi sifatida

Hozirgi kunda eng dolzarb, chuqur o`рганиб амалиятга татбиқ etilishi zarur bo`lgan masalalar O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni асосида tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi, Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda Prezidentimizning 2016 yil 29 dekabrdagi “Mактабгача та`лим тизимини yanada takomillashtirish bo`yicha 2017-2021 yillarga mo`ljallangan dasturni tasdiqlash to`g`risida”gi qarorlaridir.

Yuqoridaғи hujjatlar асосида yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan yaxshilash, давлат ва jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini та`minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, boshqa sohalar qatori mактабгача та`лим тизимини takomillashtirishga katta e`tibor berilayotgani nihoyatda quvonarli hol. Jumladan, mактабгача та`лим muassasalari tarmog`ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun mактабгача та`лим muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, ularni zamonaviy kompyuter texnikasi va o`quv-metodik qo`llanmalar bilan jihozlash bo`yicha ишларни amalga oshirish

orqali moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarning maktabgacha ta`lim bilan qamrab olinishini oshirish va uning qulayligini ta`minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish asosiy maqsadimizdir.

“Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha 2017-2021 yillarga mo`ljallangan dastur” asosida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Xorijiy tajribalarni inobatga olgan maktabgacha ta`limga qo`yiladigan davlat talablari ishlab chiqilib, Xalq ta`limi vazirligining 2017 yil 9 iyundagi 5-mh-sonli buyrug`i bilan tasdiqlandi va 2017 yil 17 iyul kuni Adliya vazirligi tomonidan 2898-sون bilan ro`yxatdan o`tkazildi.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagagi “Maktabgacha ta`lim muassasalarning faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi 528-sон qarori bilan maktabgacha ta`lim tizimini tartibga soluvchi Nizomlar tasdiqlandi.

Davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to`g`risidagi Nizom, Nodavlat maktabgacha ta`lim muassasasi to`g`risida Nizom, Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim muassasalari to`g`risida Nizom, Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining sog`lom va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etish to`g`risidagi Nizom tasdiqlandi.

-2017 yilda ta`mirlanayotgan 301 ta maktabgacha ta`lim muassasalarini mantiqiy rivojlantiruvchi didaktik o`yinchoqlar bilan ta`minlash maqsadida 9 nomdagi o`yinchoq uchun texnik talablar ishlab chiqilgan bo`lib, 5-7 aprel kunlari o`tkazilgan Tarmoq sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasи doirasida 301 ta bog`chalar uchun jihozlarni xarid qilish bo`yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan tegishli shartnomalar imzolanib, shartnomalar asosida respublikadagi 1200 ta maktabgacha ta`lim muassasalariga 9 nomdagi o`yinchoqlar etkazib berildi.

- maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqishlarini barvaqt uyg`otish, bolalar va ota-onalar hamdapedagog kadrlar uchun zarur bo`lgan badiiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy adabiyotlar bilan ta`minlash maqsadida kichik kutubxonalar faoliyatini tashkil qilish bo`yicha “Maktabgacha ta`lim muassasalarida kichik kutubxonalar tashkil etish” yo`riqnomasi ishlab chiqilib, 2017 yil 25 yanvarda MTMXQTUMORO`MM qoshidagi Ilmiy-metodik kengashdan o`tkazildi va joylarda kichik kutubxona faoliyatini to`g`ri tashkil etish uchun viloyatlarga elektron nusxalarda yuborildi. Hozirgi kunda har bir maktabgacha ta`lim muassasalarida kichik kutubxonalar tashkil etildi.

“O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`limga qo`yilgan Davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining besh yo`nalishi: jismoniy rivojlanirish va madaniy-gigienik ko`nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanirish, nutq, savod, o`qish va chet tillarining o`rgatilishiga tayyorlash, bilish jarayonini rivojlanirish, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlanirishbo`yicha multimedia dasturlari ishlab chiqiladi;

- 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashning yangi shakllarini joriy etish maqsadida qishloq hududlardagi mактабгача та`lim muassasalarida 2017-2021 yillar davomida 6100 ta qisqa muddatli (3-4 soatli) guruhlар tashkil etiladi. 2017 yilda 1200 ta qisqa muddatli guruhlарni tashkil etish hamda mактабгача та`limiga qamrab olish ko`rsatkichini 31 foizga ko`tarish yuzasidan istiqbol reja ishlab chiqildi;
- MTMXQTUMORO`MMda mактабгача та`lim yo`nalishida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o`quv rejalarini va dasturlari takomillashtirildi;
- mактабгача та`lim muassasalari pedagog kadrlariga metodik yordam ko`rsatish maqsadida, davlat talablari va pedagog kadrlarning malakasini oshirish kurslari o`quv dasturlari asosida elektron resurslar yaratiladi;
- ta`lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, pedagog kadrlar tomonidan kasb etikalariga rioya qilish ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan seminar, davra suhbatlari va master-klasslar tashkil qilish bo`yicha seminarlar o`tkazish jadvali ishlab chiqildi;

Ushbu qarorlarni amalga oshirish uchun avvalambor mактабгача talim muassasalarining ta`lim- tarbiyaviy jarayonni to`g`ri rejorashtirish va tashkil qilish lozimdir.

«Pedagogik jarayon» tushunchasi hali umumiy pedagogikada ham, mактабгача pedagogikada ham o`zining to`liq ifodasini topmagan. Umumiy pedagogikada pedagogik jarayon ta`lim-tarbiya jarayonining sinonimi deb qaraladi. Bunda u asosiy tarkibiy qismlari tarbiya va rivojlantirish birligidagi o`qitish bo`lgan yaxlit jarayon deb qaraladi. Pedagogik jarayonni va uni harakatlantiruvchi kuchlarning asosiy qonuniyatlarini topishga ham urinib ko`rilgan.

Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilishi va shakllari rivojida namoyon bo`luvchi o`zgaruvchanlikdir. Bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayon mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish ularni jismoniy, aqliy, ma'naviy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishga yo`llangan. Bu vazifalarni ro`yobga chiqarish pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining xilma-xil turlari-o`yin, turmush, mehnat, o`quv, oddiy badiiy va hokazo faoliyatları orqali ta'minlanadi. Ular mактабгача tarbiya yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vosita xizmatini o`taydi va ayni bir vaqtida bolalar egallaydigan mazmun ham hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning tashkil etilishi ilk mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar uchun xos bo`lgan umumiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhdagi shuningdek, butun bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonni o`zgaruvchanligini belgilaydi.

Bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o`ziga xosligi bilan farqlanadi. Bolalarni uyuştirishning umumiy va yakka shakllari o`zgaruvchanlikgi va xilma-xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir

yosh guruhida rejalahtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi. Rejalahtirishning maqsadi – «Bolalar bog`chasi ta'lim-tarbiya dasturi» ning bajarilishini ta'minlashdir.

Bolalar xayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

**Kichkina rypyh** bolalarining ko`p vaqtiga guruh xonasida o`tadi. Yaxshi jixozlangan xona, o`yinchoq va qo`llanmalarni to`g`ri tanlash bolalarning to`la qonli xayot kechirishining asosiy sharti xisoblanadi. Guruh xonasidagi o`yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 2-3 ta bo`lib o`ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, «Oila», «Bolalar bog`chasi» va shunta o`xshash o`yinlarni o`ynashlari uchun o`yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, xarakatlanuvchi o`yinchoqlar ham bo`lishi kerak, qolgan o`yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o`ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jixozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg`ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jixozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo`yiladi.

**Kichik guruh.** Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun (tabiat burchagiga akvariumda baliq, to`rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog`cha maydonchasida sport o`yinlari bilan shug`ullanish uchun maxsus joy bo`ladi, u kerakli anjomlar bilan jixozlab qo`yiladi: velosipedda uchish uchun yo`lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g`o`la va shunga o`xshashlar bo`ladi. Olib chiqilgan o`yinchoqlarni o`ynash uchun maxsus stollar, skameykalar, suv bilan o`ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo`lishi kerak.

**O`rta guruh.** Guruh xonasi uqlash xonasi, gigiyena xonasi va echinish xonasi bo`lishi kerak.

Guruh xonasi bir necha bo`limdan iborat bo`lishi kerak. Birinchi o`yin bo`limida qo`g`irchok bilan o`ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo`ladi. Ikkinci o`yin bo`limida qurilish materiallari qo`yiladigan shkaf va ular bilan o`ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug`ullanishlari uchun kerakli materiallar qo`yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o`yini bilan shug`ullanishlari uchun o`yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqqa joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko`kalamzorlashtiruvchi o`simliklar bilak bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o`simliklar bilan to`silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o`yinlari uchun kerakli asboblar bilan jixozlanadi.

**Katta rypyh.** O`yin bo`limlari bolalarning yoshiga mos holda, o`rta guruh xonasasi kabi jixozlanadi. Gurux xonasida yana mashg`ulot o`tkaziladigan bo`lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o`ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o`yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafu, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi qo`l mehnati bilan shug`ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug`ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo`lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo`sh joy bo`lishi zarur. Maydonchada sport o`yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg`itish uchun kagta joy ajratiladi. Syujetli o`yinlar uchun o`yinchoqlar ham bo`ladi.

**Tayyorlov guruhi.** Bu erdag'i mashg`ulot o`tkaziladigan bo`limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo`yiladi. Guruh xonasidagi jixozlar zarurat tufayli ,shug`ullanganda o`yinga joy bo`shtish maqsadida boshqa tomonga surib qo`yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o`yinlari va har xil o`yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o`zлari gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar xayotini tashkil etishga qo`yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar xayotini tashkil etish, bolalarning bogchada 9-12 soat bo`lishi kun tartibida belgilab qo`yilgan. Bunda ertalabki qabul muxim rol o`ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog`chadagi vaqt qiziqarli, sermazmun o`tishni ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chexra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo`ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o`yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning gurux xonasidagi, ovqat va mashg`ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko`rsatilgan vaqt mobaynida mashg`ulot o`tkaziladi. Mashg`ulotgacha va mashg`ulot o`rtasi o`yinlar tashkil etiladi. Qanday o`yin o`tkazilishi mashg`ulotning mazmuni va xususiyatiga bog`liq. Bolalar o`tirib shuullanadigan mashg`ulotdan oldin harakatlari o`yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg`ulotdan oldin tinch o`yinlar o`ynashadi. Mashg`ulotdan keyin sayr o`tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy xayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Xarakatli o`yinlar o`tkazadi, mustaqil o`yin o`tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatları, mehnat, didaktik o`yinlar, ijodiy o`yin turlari bilan shug`ullanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o`yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o`xshashlar bolalarning harakat faolligini o`stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, echinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoqlik bilan o`tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg`otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg`uloti o`tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o`yinlar, tinch harakatli o`yinlar, kuzatish, qo`l mexnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatni, ko`ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar xayotini tashkil etishga qo`yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug`ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta'minlashdir.

Shunday qilib, kun davomida bolalar xayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo`yiladi:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug`ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg`ulot, o`yin, mehnat, maishiy faoliyat o`rtasida aloqa o`rnatish.
5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko`nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo`llay olishga o`rgatish.
6. Bolani faol bo`lishga, har doim biron narsa bilan mashul bo`lishga o`rgatish.
7. Har bir bolani ijobiy xoxish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.
9. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish.

## **I.2.Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish vazifalari**

Ta`lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog`ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma`naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta`limiga tayyorlash – maktabgacha ta`lim muassasasi pedagoglarining mahorati, bilimi va tajribasiga bog`liq. Buning uchun har bir pedagog xodim tinimsiz izlanishi va o`rganishi lozim.

Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim-tarbiya jarayonini rejalahshtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdir, tarbiyachi bolalarning psixologik-fiziologik rivojlanish darajasini, “Maktabgacha ta`limga qo`yiladigan davlat talablarini”ni, hamda u asosida yaratilgan ta`lim- tarbiya dasturini yaxshi bilishi kerak. Reja tarbiyachiga dastur talablarini bir yilga bir tekisda taqsimlashga yordam beradi hamda ta`lim-tarbiya berish va tarbiyalashning usullarini oldindan o`ylab olish, maqsadni aniqroq ko`rish imkonini beradi. Reja bo`lsa, tarbiyachi bugun nima vazifa bilan shug`ullanish va kelgusidagi vazifalarni biladi.

Ta`lim tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachi tomonidan tuziladi. Reja oy boshlanishidan besh kun avval metodistga tasdiqlash uchun beriladi. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi Maktabgacha ta`lim

muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Respublika o`quv metodika Markazi tomonidan tavsiya etilgan mактабгача та`lim muassasasi tarbiyachisining bir o`quv yiliga mo`ljallangan ta`lim-tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachining faoliyatini bir oz yengillashtiradi.

Jumladan: har oy uchun istiqbol reja, ota-onalar bilan ishslash, madaniy gigienik ko`nikmalar, o`yin faoliyati, ko`ngil ochar soatlarini yoritish, tarbiyachining oy davomida o`z oldiga qo`ygan rejali, ertalabki badan tarbiya mashqlarini rejalashtirish uchun tayyor varaqalar tayyorlanadi;

Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bolalar bog`chalarida kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta`minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.
2. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagи bolalarni tanlash va shunga qarab ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug`ulla-nishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha  
olishlari uchun zarur bo`lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigienik, pedagogik,estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta`minlash.
4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta`minlash.
5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma`lum vaqt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almaiggirib borish bolalar bog`chasining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to`g`ri tashkil etishni ta`minlaydi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.Tarbiya masalalari ta`lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari:  
mashg`ulotlarda ta`lim berish orqali, ijodiy va qoidali o`yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati,ularning o`z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish,o`z-o`ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.Ta`lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to`g`ri tashkil etishga bog`liqsir.Bolalar bog`chasining pedagogik jarayonida ta`lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o`yin,mehnat, mashg`ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Mashg`ulotda ta`lim va tarbiya vazifalari hal etiladi.Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o`stirish, savod o`rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo`yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko`nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalar bolalar bog`chasi dasturida belgilab berilgan bo`lib, u bolalarning umumiyl rivojlanishi

va ularni mактаб та'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg`ulotlarda ta'lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olib, ma`lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo`ladi. Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg`ulotlar soni va har bir mashg`ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o`zining haftalik mashg`ulotlar jadvalini tuzadi, bu ta'limning hamma bo`limlari bo`yicha belgilangan ta'lim-tarbiya ishlarini to`g`ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi.

Mashg`ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: Dasturning hamma bo`limlari bo`yicha mashg`ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

1. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg`ulotlar qo'yiladi.
2. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqyaiy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.
3. Kun davomida birinchi bo`lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko`proq talab etadigan, kam harakatli mashg`ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o`xhash mashg`ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.
4. Kun davomida mashg`ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.
5. Mashg`ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o`zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o`zlariga tanish bo`lgan didaktik va harakatli o`yinlarni o`ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqgda bolalarning o`z-o`zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarning tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o`ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. SHuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi talab etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug`ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda, tarbiyachining maslahati lozim bo`ladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg`ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnati davomida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e`tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ishlayotganlarning axloqiy munosabatlariga qaratiladi. Bolalarning

ovqatlanishi, mashg`ulotga tayyorlanishi, tabiat burchagida navbatchi vazifasini bajarish ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi. Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Kichkina guruh bolalarning ko`p vaqtiga guruh xonasida o`tadi. YAxshi jihozlangan xona, o`yinchoq va qo`llanmalmarni to`gri tanlash bolalarning to`laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o`yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 2—3 ta bo`lib o`ynashlarini e`tiborga olib joylashtirilishi, bir qancha o`yinlar uchun o`yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o`yinchoqlar ham bo`lishi kerak, qolgan o`yinchoqlar, rasmlar, shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirilishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o`ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak, harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg`ulotlaridagina olib chiqiladi.

Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo`yiladi.

**Kichik guruh.** Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun \am xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari, kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda baliq, to`rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog`cha maydonchasida sport o`yinlari bilan shug`ullanish uchun maxsus joy bo`ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo`yiladi.

**O`rta guruh.** Guruhsa uqlash xonasi, hojatxona va echinish xonasi bo`lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo`limdan iborat bo`lishi kerak. Birinchi o`yin bo`limida qo`g`irchoqpar hamda kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo`ladi. Ikkinchi o`yin bo`limida qurilish materiallari qo`yiladigan shkaf va ular bilan o`ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug`ullanishlari uchun kerakli materiallar qo`yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o`yini bilan shug`ullanishlari uchun o`yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqqa joylashtirgan ma`qul. Xona amaliy san`at asarlari va ko`kalamzorlashtiruvchi o`simliklar bilan bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o`simliklar bilan to`silib, jismoniy mashqlar va sport o`yinlar uchun kerakli asboblar bilan jihozla-nadi.

**Katta guruh.** O`yin bo`limlari bolalarning yoshiga mos holda o`rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xonasida yana mashg`ulot o`tkaziladigan bo`lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, taxta joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o`ynashlari uchun hamma kerakli materiallar (stollar, o`yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar) bo`lishi lozim. Tabiat burchagi, qo`l mehnati bilan

shug`ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat burchaklari bo`lishi kerak.

**Tayyorlov guruhi.** Bu erdagи mashg`ulot o`tkaziladigan bo`limda katga guruhsagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo`yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug`ullanganda o`yinga joy bo`shtish maqsadida boshqa tomonga- surib qo`yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o`yinlari va har xil o`yin uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o`zlariga gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo`yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalarning bog`chada 9—12 soat bo`lishi kun tartibida belgilab qo`yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o`ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog`chadagi vaktni qiziqarli, sermazmun o`tishini ta`minlaydi.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishdagi talablar quyidagicha:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug`ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhiда faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta`minlash.
4. Mashg`ulot, o`yin, mehnat, maishiy faoliyat o`rtasida bog`liqlik o`rnatish.
5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko`nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo`llay olishga o`rgatish.
6. Bolani faol bo`lishga, har doim biron narsa bilan mashg`ul bo`lishga o`rgatish.
7. Har bir bolani ijodiy qobiliyatları, xohish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.
9. Kun tartibiga qat`iy rioya qilish.

### I bob yuzasidan xulosa

Yuqoridq ko`rsatib o`tilan ma`lumotlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki,maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdır, tarbiyachi bolalarning psixologik-fiziologik rivojlanish darajasini, “Maktabgacha ta`limga qo`yiladigan davlat talablari”ni, hamda u asosida yaratilgan ta`lim- tarbiya dasturini yaxshi bilishi kerak. Reja tarbiyachiga dastur talablarini bir yilga bir tekisda taqsimlashga yordam beradi hamda ta`lim-tarbiya berish va tarbiyalashning usullarini oldindan o`ylab olish, maqsadni aniqroq ko`rish imkonini beradi. Reja bo`lsa, tarbiyachi bugun nima vazifa bilan shug`ullanish va kelgusidagi vazifalarni bajarishga imkon yaratadi.

## **II BOB**

### **MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHNI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISHNING AMALIY SHART- SHAROITLARI**

#### **II.1.Rejelashtirishga qo`yiladigan talablar**

Reja tarbiya va ta'limiy ishlar vazifalarini, faoliyat va ularni tashkiliy usullarining asosiy turlarini, qo`yilgan masalalarini ma'lum vaqt orasida hal etish vosita, tabiat, bolalarning tarbiya tomonidan uyushtirilgan faoliyatini ularning mustaqil faoliyatlari jamoa, hamkorlikdagi, yakka faoliyat bilan birikish va shu kabilar nazarda tutiladi. Shunday qilib, pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejelashtirishda etakchi hisoblanadi.

6. Masavir bu gullarni chizishda qanday bo'yoqlardan foydalangan ( och pucti, malina rang)
7. Mna bu atrgulni tasvirlash uchun qanday ranglarni olasiz?
- 8.Lolani-chi?
- 9.Na'matakning rangi qanday?
- 10.Sariq rangdagi qalam bilan qanday gullarning rasmini chizasiz.
- 11.Binafsha rangli qalam bilan qanday gullarni chizasiz?
- 12.Pushti rangdachi?

Shu tariqa bolalar na'munaga qarab gul rasmini chizishadi .

### **3- mashg'ulot.Jismoniy tarbiya**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni tarqalib yurish va yugurishga,beto`xtov 1,5 m gachayugurishga mashq qildirish,qiya qilib qo`yilgantaxtadanyurishda muvozanat saqlashbni o`rgatishni davom ettirish,g`o`lachalardan sakrab o`tish va to`p tashlashnimashq qildirish.

#### **Mashg'ulotning borishi:**

Kirish qism

1-Bir qator bo'lib yurish, tarbiyachining ishorasiga binoan tarqalib yurish, bir qator bo'lib saflanish,harakat yo`nalishini o`zgartirib mo`tadil suratda 1,5 m gacha yugurish;bir qator bo`lib yurish.Uch qatorga qayta saflanish.

2-asosiy qism gardish bilan bajariladigan umurivojlantiruvchi mashqlar.

1.D.h: asosiy tik tirish, birinchi gardishni oldinga uzatish ikkinchi gardishni yuqoriga ko'tarish, uchinchi gardishni oldinga uzatish .

2 .D.h asosiy tik turish va gardish pastda.Birinchi gardishni yuqoriga ko'tarish , ikkinchi o'ngga egilib qo'llarni tog'ri tutish. 3 gardish yuqorida 4. dastlabki holatga qaytish ( 6 marta)

3.D.h.:asosiy tik turish,gardish bukilgan qo`llarda ,ko`krak oldida 1-2-o`tirish,gardishning oldinda tutib turish,dastlabki holatga aytish(6 marta).

4. D.h: polga o`tirib,qo`llarni bukib, gardish bukilgan yo'llarda ko`krak oldida tutish . 1- Oldinga o'ng oyoqqa engashishh , 2-dastlabgi holatga qaytish. shuning o'zini chap oyoqqa engashib bajarish ( 6 marta)

5.D.h. dastlabgi holatga o'tish gardish ushlagan qo'llarni bosh tomonga uzatish 1-2 oyojni tizzadan bukib , gardish chetini tekkizish , 3-4 D.hga qaytish ( 5-6) matra.

6.D .h : Gardish ichida turish 2 oyoqda gardish ichiga sakrashni va undan sakrab chiqishni tarbiyachining 1-8 sanog'i ostida bajarish , buni gardish ichida yurish bilan navbatlashtirish ( 3-4) marta

7. D.h : Gardishni ikki qo'lada pastga ushslash ( yon tomonlaridan ushlangan ) birinchi **gardishni** oldinga uzatib o'ng oyoq uchini n

orqaga qo'yish 2. D.H qaytish (6) marta.

### **Asosiy harakat turlari.**

1. Qiya qilib qo'yilgan taxtadan ( kengligi 15 sm ,balandligi 30 sm) qo'llarni yontomonga uzatib yurish( 2-3 marta)

2. G'o'lalardan sakrash.( balandligi 8 sm 6-8 dona) tin olmay sakrab o'tish 2-3 marta

3.To'pni 2m masofadan ikki qo'llab bosh orqasidan gardishga tashlash 5-6 marta

Keyin bolalar ikki gurihga bo'linadilar tarbiyachi buyrug'iga binoan o'ren almashadilar va hammaninfg tayyor ekaniga ishonch hosil qilgach mashqni bajarishga kirishadilar.

“ Ovchilar va quyonlar harakatli o'yini”

**Yakuniy qism:** kam harakatli o'yin.

### **Sayr.**

#### **1 Qish faslini belgilarini kuzatishda davom etsh**

Maqsad: Bolalarni fevral qishning oxirgi oyi ekanligi , ku sezilarli daraja uzaygani qushlar ovozi jonlanib qolgani kabi tabiat o'zgarishlariga diqqatlarini jalb etish.

#### **2.Kam harakatli o'yin „ Toginu indama”**

**3. Itiyoriy o'yinlar** (turli o'yinlar ,o'yinchoqlar arqon qo'g'irchoqlar )

**4. Mehnat** Bolalar bilan birgalikda maydinchani tozalash

#### **5. Tinch o'yin**

#### **Kunning ikkinchi yarmi**

#### **1 Yakka tartibda ishlash ( to'garak ishlari)**

**2 Ifodali o'qish va suhbat** ( ertaklar olamiga sayohat)

**3 „ Bo'g'lnlarda so'z tuzing” ta'limiy o'yin**

Bo'g'inli kubiklardan foydalanib so'zlar tuzdiriladi avval bir bo'g'inli so'ng ikki bo'g'inli so'zlar tuziladi

### **Kechgi sayr.**

- 1.Ixtiyoriy kuzatish
- 2 Itiyoriy o'yinlar
- 3 Ota -analar bilan ishlash

### **Bolalarni rivojlanish ko`rsatgichlarini tahlil qilish**

Maktabgacha yoshdagি bolalarning rivojlanishiga qо`yiladigandavlat talabalari asosida:maktabgacha yoshdagи bolalarning jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi ,nutq,o`qish va savodga tayyorgarlik,hamda bilish jarayoni,atrof-olam to`g`risidagi bilimga ega bo`lish va uni anglash yo`nalishlari bo`yich egallashi lozim bo`lgan bilim,ko`nikma va malakalarini aniqlash uchun mezonlar o`quv yili bo`yicha 1- yarim yillik (sentyabr, oktyabr,noyabr,dekabr), 2-yarim yillik(yanvar,fevral,mart,aprel,may)bo`linib berilgan.Mezonlar kichik,o`rta,katta,tayyorlov guruhlari bo`yicha ishlab chiqildi. Metodik tavsiyadan maktabgacha ta`lim muassasalarida, tashhis markazlarida tarbiyalanuvchilarning faoliyatlarini tahlilini olib borishda foydalaniladi.

### **Guruh bolalarining dastur asosidagi bilim, ko`nikma va malakalarini aniqlash**

1. Guruh bolalarining dastur asosidagi bilim, ko`nikma va malakalarini aniqlash uchun me'zonlar 4 yo`nalishda ishlab chiqiladi
  - a) jismoniy rivojlanish, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena;
  - b) ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
  - c) nutq, o`qish va savodga tayyorgarlik;
  - d) bilish jarayoni, atrof-olam to`grisidagi bilimga ega bo`lish va uni anglash;
2. Bu mezonlar asosida har bir bola alohida 3 ball bilan belgilanadi.
3. Mezonlar jadvalga solinadi.
4. Bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini baholash uchun maksimal ballni aniqlab olamiz. Buning uchun mezonlar sonini 3 ballga, ya'ni eng yuqori ballga ko`paytiriladi. Masalan, jismoniy rivojlanish, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena yo`nalishi bo`yicha 20 ta mezon tuzilgan bo`lsa, uni eng yuqori ball, ya'ni 3ga ko`paytiramiz

$$10 \times 3 = \text{maksimal ball}$$

Foiz darajasini aniqlash uchun masalan: Nodira Abdullayeva jismoniy rivojlanish, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena yo`nalishi bo`yicha 25 ball oldi, buni arifmetik hisoblaymiz:

$$30 - 100\% \quad 25 - X \quad 25 \times 100 : 30 = 83,3\%$$

Demak, Abdullayeva jismoniy rivojlanish, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena yo`nalishi bo`yicha dastur vazifalarini 83,3% o`zlashtirdi. O`zlashtirish darajasini aniqlash:

- |                                |
|--------------------------------|
| 75 – 100% gacha ----- I daraja |
| 50 – 75% gacha -----II daraja  |
| 50% gacha -----III daraja      |

Ko`rsatkichlar aniqlangandan so`ng xulosa chiqariladi. Masalan: jismoniy rivojlanish, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena bo`yicha 1-yarim yillik bo`yicha

- I daraja ---.....bola
- II daraja ---.....bola
- III daraja ---.....bola

Raqamlar bu tarbiyachining ekrani. Raqamlar orqali guruh ko`rsatkichlari yaqqol ko`rinadi. Bu ko`rsatkichlar asosida metodist qaysi yo`nalish bo`yicha baho ko`rsatkichi past bo`lsa o`sha yo`nalish bo`yicha tarbiyachiga tавсиya, takliflar beradi.

Shu tariqa dasturning 4 yo`naloshdagi hamma faoliyatlar bo`yicha bolalarning bilim, ko`nikma va malakalarini egallaganlik darajasi aniqlanadi. Bu ko`rsatkichlar bo`yicha 2 ta nusxa tayyorlanib, biri tarbiyachining o`zida qoladi ikkinchisi uslubshunosga topshiriladi.

#### **Metodist vazifasi**

Maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti barcha guruhlarning rivojlanish ko`rsatgichlarini ko'rib chiqadi va tahlil qiladi . Qaysi yo`nalish bo`yicha ko`rsatgichlar past bo`lsa , tarbiyachilarga tавсиya beradi , so`ngra maktabgacha ta'lim muassasasi bo'yich rivojlanish ko`rsatkichlari umumlashtiradi. Bunda Maktabgacha ta'lim muassasa guhuhrarinig foiz ko`rsatkichlari qo'shiladi va guruh soniga bo'linadi . Masalan 5 ta guruhlu Maktabgacha ta'lim muassasasining jismoniy rivojlanish o'z- o'ziga xizmat yo`nalishi bo`yicha xizmat daralasini quyidagicha umumlashtiriladi. Umumlashtirilgan foizni baholangan guruh soniga bo'lib, maktabgacha ta'lim yonalishi foizi aniqlanadi (  $75+82+89+91+96=433$ : 5 ta guruh soni= 86,3%)

Maktabgacha ta'lim muassasasi bo`yicha darajani aniqlash uchun 1- darajali bolalar soni 50 ta bo`lsa 50 ni umumiyl baholangan bola sonoga bo'lib aniqlanadi

Masalan: 50 (1- darajali bolalar soni ): 119 ( umumiyl baholanayotgan bolalar soni )= 42%

Ilk yoshdagi bolalar guruhalarda tarbiyaviy ishni rejorashtirish xususiyatlari.Ilk yosh bolalar guruhidagi ishning asosiy shakli istihbol rejorashtirishdir. U bolalarning dastlabki ikki yildagi jismoniy, asab-psixologik rivojlanish qonuniyat va normativlarini bilishga asoslanadi.

Istiqlol rejani tuzishda oldin tibbiy pedagoglik yig`ilishi o`tkazilib, unda shifokor (tibbiy katta hamshirasi), tarbiyachi, tarbiyachi-metodist, mudira qatnashadi. Bu yig`ilishda har bir bola sog`ligining holati, uni jismoniy va asab-psixologik rivojlanish ko`rsatkichlari mufassal muhokama qilinadi. Bunday holda rivojlanishda vaqtincha orqada qolgan bolalarga alohida e'tibor beriladi.

Yig`ilishda ushbu tahlil asosida har bir guruh bolalarining kichik guruhlari, shuningdek yakka tartibda olib boriladigan ishning etakchi vazifalari va yo`nalishlari belgilanadi. Bu vazifalar keyin rejada aniqlashtiriladi.

Har ikkala guruh uchun mo`ljallangan istiqbol reja quyidagi:

1. Jismoniy tarbiya va bolalar sog`ligini mustahkamlash;
2. Bolalarni asab-psixologik rivojlantirish vazifalari;
3. Bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning umumiy masalalari bo`limlari asosida ishlab chiqiladi.

Ilk yoshdagi bolalar birinchi guruhidagi ishlarni rejorashtirish.

Bu guruhda asosiy e'tibor bolalar sog`ligini mustahkamlash va ularni jismoniy tarbiyalashga qaratilgan. Shunga ko`ra ish rejasi quyidagilarni: a) bola uchun kun tartibini belgilash (yangi kun tartibiga o`tish); b) mazkur vaqt bo`lagidagi gigienik xizmatining o`ziga xosligini aniqlash, bunda shakllantirilishi lozim bo`lgan gigienik ehtiyoj va odatlar ko`rsatiladi; v) chiniktiruvchi muolajalar tabiat: g) harakatni rivojlantirish ishini (emaklash, o`tirish, turish, so`ngra yurish va shu kabilarni) nazarda tutadi.

Bir yoshli bolalarni talab darajasida asab-psixologik rivojlantirish ishini rejorashtirish avvalo bolalarning faol bedorliklari uchun sharoit yaratishni ko`zda tutadi. Unda shuningdek, qaysi o`yinchoqlarni bolalar ixtiyoriga berish, ularni qaerga qo`yish (osib qo`yish, maneja yozib qo`yish) ko`rsatiladi, bir yoshga to`layotgan bolalarga polda o`ynash va faol harakat qilishlari uchun sharoit yaratiladi. Bir yoshli bolalar bilan bo`ladigan ishni rejorashtirishning asosiy yo`nalishlari: a) ko`rish va eshitishni, so`ngra ko`rish va eshitishni, so`ngra ko`rish va eshitishni idrokini rivojlantirish: b) buyumli, harakatlar, (buyumni ushslash, buyumlar bilan harakat qilish, maqsadga yo`llangan harakatlar va shu kabilalar): rejada foydalaniladigan o`yinchoq va buyumlar ko`rsatiladi: v) katta yoshlilar va tengqurlari bilan muloqotda ijobjiy hissiyotlarni shakllantirish: g) ovoz va nutq reaksiyalarini rivojlantirish va keyinchalik nutqni va faol nutqni shakllantirishdir.

Rejaning har bir bo`limiga doir aniq vazifalar ishlab chiqiladi. Ularni hal qilish uchun materiallar tanlanadi va bolalar bilan yakka tartibda yoki 2-3 bola bilan ishslashda foydalaniladigan ish usullari ko`rsatib o`tiladi. (Bir yoshli bolalar rivojlanish sur'atlari turlicha bo`lishi mumkinligini hisobga olib, bolalarning ismlarini ham ko`rsatish kerak).

Tarbiyachi mashg`ulotlar o`tkazishda 9-10 oylik bolalarni kichik guruhlarga birlashtirishi mumkin. Bu holatda istiqbol rejaga bolalar bilan bir haftalik mashg`ulotlar uchun jadval (setka) ishlab chiqiladi.

Kun davomida 3-4 qisqa mashg`ulotlar (ko`pi bilan 10daqiqa) rejorashtiriladi. Mashg`ulotdan bittasi ertalabki vaqt bo`lagida o`tkaziladi. Odatda, bu bolalarga tanish o`yinchoqlarni ko`rsatish, ularni topish, burama o`yinchoqlarni ko`rsatishdir. Ikkinci va uchinchi mashg`ulot (ular 45-50 daqiqa davomida o`tkaziladi) bolalarning tevarak-atrofni mo`ljalga olishlarini

kengaytirish, buyumlar bilan harakatlar bajarishlariga bag`ishlanadi. Bu shuningdek musiqa mashg`uloti ham bo`lishi mumkin.

Aytib o`tilgan mashg`ulotlar avval shu material asosida, so`ngra uni almashtirib ko`p karra takrorlanadi. Masalan, burama jo`jani ko`rsatish bir-ikki mashg`ulotdan keyin raqsga tushuvchi ayiqcha bilan almashtiriladi. Ilk yoshdagi bolalar ikkinchi guruhidagi ishlarni rejalashtirish.

Ilk yoshdagi ikkinchi guruh bolalariga mo`ljallangan istiqbol reja ayni o`sha yirik bo`limlar: jismoniy tarbiya va bolalar sog`ligini mustahkamlash, bolalarni asab-psixologik rivojlantirish bo`yicha ish vazifa hamda mazmunini aniqlashni qamrab oladi.

Jismoniy tarbiyaga doir ishni rejalashtirishda asosiy e'tibor bolalarning asosiy harakatlari (yurish, yugurish, tirmashish)ni rivojlantirishga qaratiladi. Bu maqsadda harakatlarni rivojlantirish, chiniqtirish muolajalari o`tkaziladi (demak, rejalashtiriladi), shuningdek, madaniy gigienik malakalar va mustaqillik malakalari hajmi belgilanadi.

Istiqbol rejada bolani umumiylashtirishda asosiy e'tibor bolalarning dasturida ko`rsatilgan yo`nalishlarga oid quyidagicha: a) tevarak-atrof bilan tanishishni kengaytirish va nutqni rivojlantirish: b) buyumlar bilan harakatni rivojlantirish: v) o`yinni bolaning mustaqil faoliyati sifatida rivojlantirish: g) tengqurlari va katta yoshlilar bilan muloqot malakalarini shakllantirish yanada ani-roq qilib belgilanadi.

Rejaga qo`shimcha tarzda 1-1,5 oyga mo`ljallab birinchi guruhda qilinganidek, mashg`ulotlar turining setkasi ishlab chiqiladi. Mashg`ulotlar soni kun davomida uchtagacha qisqartiriladi, ammo davomiyligi ortiriladi.

Istiqbol reja va mashg`ulotlar setkasi asosida tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar guruhidagi singari kundalik ish chizmasini tuzadi.

### 3- Tarbiyaviy ishni hisobga olish.

Rejalashtirish bolalar bilan bo`ladigan tarbiyaviy ishni muntazzam hisobga olish bilan uzviy bog`langan. Hisobga olish keyingi rejalashtirish uchun asosan xizmatni o`to`ydi, bolalarga ko`rsatishning samarali usullarini, faoliyatlarini tashkil etish shakllarini tanlashda tarbiyachiga umumlashtirishga o`rgatadi.

Tarbiyachi eng avvalo o`zining kalendar rejasini amalga oshirishga doir ishni hisobga oladi.

Tarbiyachi foydalangan ish shakli, metodi va usullariga uning samarali, natijaliligi, mazkur, bolalar jamoasi xususiyatlariga muvofiqligi nuqtanazaridan baho beradi. Hisobga olishda ayrim bolalarning ilgarilashlari, ularni xulq-atvorlarining xususiyatlari, mashg`ulot, o`yin, kundalik, faoliyatda,

o`zlarini ko`rsatishlarini, qayd etish o`rinlidir. Bunda bolalarning faollik darajalarini, uning tabiatini va yo`nalishini baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Hisobga olishda bolalar o`yinlari tahliliga alohida o`rin berish darkor. Bolalarning o`zlarini-o`zları uyushtirishlari darjasini va tabiatini, o`yin mavzusi, unda paydo bo`layotgan yangilikni, barqaror birlashmalar borligini, tarbiyachining bolalar o`yinlariga aralashish tabiatini va samarasini va shu kabilarni muntazzam qayd etib borish zarur.

#### 4- Ilk yoshdagি bolalar guruhlarida yillik ishni hisobga olish.

Ilk yoshdagи bolalar guruhlaridagi ishni hisobga olishning asosini jismoniy va asab-psixika rivojlanish bola uchun kundalik tutiladi. Unda har bir bola sog`ligining holati: tana harorati, tomog`i, terisining holati va shu kabilar qayd etiladi. Bolalarning kun davomidagi xatti-harakatlari, uni rejim jarayoniga, mashg`ulotlarga nisbatan munosabati, shuningdek, uyqu, va sayrning davomiyligi ham unga kiritiladi.

Hisobga olishning bu turlaridan tashqari bola rivojlanishining maxsus varaqchasi yuritiladi. Unga har oyda (bir yoshli bolalar uchun) va ikkinchi guruh bolalari uchun 3 oyda bolaning jismoniy va asab-psixik rivojlanish asosiy ko`rsatkichlariga ko`ra baholanadi. Varaqchani shifokor tarbiyachi bilan birgalikda yuritiladi.

#### 5- Yillik hisobotda ta'lim-tarbiyaviy ish.

Yillik hisobotda tarbiyachi o`tkazilgan ishni tahlil qiladi va bilim, malaka hamda ko`nikmalar darajasini, yosh guruhi dasturi talablariga muvofiq ta'riflaydi. Hisobotda bolalarning uyushganlik darjasini, ularni mustaqillik va faolliklarning rivojlanishi ko`rsatilgan. Tarbiyachi shakllangan xulq-atvor malakalarini bolalarning tengqurlari va katta yoshlilar bilan o`zaro munosabat qoida va normalarni egallaganlik darajalarini baholaydi. Madaniy-gigienik va o`ziga-o`zi xizmat ko`rsatish malakalarining hajmi, qanchalik o`rganilganligi, puxtaliigi, ongliligi baholanadi. Bolalarning harakat malaka va ko`nikmalarining daraja hamda sifati maxsus normativlarga ko`ra baholanadi.

Bolalar bog`chasining yillik hisobotiga bolalar bilan ta'lim-tarbiyaviy ishning holati va yakunlari haqidagi bo`lim kiritiladi. U tarbiyachilarning yillik hisobotlari asosida tuziladi. Unda yillik rejada qo`yilgan vazifalarning bajarilishi "Bolalar bog`chasi ta'lim-tarbiya dasturi" asosidagi xulosalar keyingi yillik rejani tuzishda asos xizmatini o`taydi.

### **II.3. Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobga olishga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi**

O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda

ta`lim sohasidagi islohatlarning borishi jarayonida qator huquqiy-me`yoriy hujjatlar yaratildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktyabrdagi “Maktabgacha ta`lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi 225-sonli Qarori, 2009 yil 18 maydagi Vazirlar Maxkamasining “Xalq ta`limi muassasalarini harajathlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 139-sonli Qarori, 2010 yil 18 iyundagi “Davlat maxsus maktabgacha ta`lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 117-sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining 2013 yil 19 sentyabrdagi 302-sonli hay`at qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta`limga qo`yiladigan Davlat talablari” va “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim Konsepsiyasi” im muassasalarida yuritiladigan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta`lim-tarbiya jarayonidagi ma`suliyatlarini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining 2016 yil 4 fevraldagi «Maktabgacha ta`lim muassasalarini va umumiy o`rtalim maktablari pedagog xodimlarining ish xujjatlarini yuritish to`g`risida»gi 33-sonli buyrug`i chiqarildi.

Ushbu buyruqqa binoan:

#### **04-Tarbiyachining ish hujjatlari quyidagilar:**

04-01 Oylik va Kundalik ish reja

04-02 Tabel,filtr daftari

04-03 Bolaning psixik va jismoniy rivojlanishi ko`rsatkichlari (ilk guruh daftari)

04-04 Mashg`ulotlarni o`zaro kuzatish daftari

O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 18 oktyabrdagi 2517-son bilan ro`yxatga olingan O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining 2013 yil 19 sentyabrdagi 302-son buyrug`iga ilova qilib tasdiqlangan Maktabgacha ta`limga qo`yiladigan Davlat talablari asosida Bolajon tayanch dasturi takomillashtirildi.

#### **Kiritilgan o`zgarishlar:**

-Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi mazmuniga Maktabgacha ta`limga qo`yiladigan Davlat talablaridagi yo`nalishlar, kichik sohalar, indikatorlar, ta`limga yondashuvlar to`liq qamrab olindi.

- Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturida oldingi dasturlardan farqli ravishda shaxsga yo`naltirilgan ta`lim tamoyillaridan kelib chiqib “Bolalar” so`zi o`rniga har bir bolaga individual yondashishni nazarda tutgan holda “Bola” so`zi ishlatildi, bu dasturdan nafaqat maktabgacha ta`lim mutaxassislari balki ota-onalar ham farzandlarini tarbiyalashda foydalanişlariga qulaylik yaratadi.

#### **1-yo`nalish: JISMONIY RIVOJLANISH, O`Z-O`ZIGA XIZMAT VA GIGIENA bo`yicha o`zgarishlar:**

Takomillashtirilgan “Bolajon”

1-yo`nalishning nomi to`liq yozildi:

Jismoniy rivojlanish,  
o`z-o`ziga xizmat va gigiena.

2. 4 ta kichik soha ham kiritildi:
  - Yirik motorikani rivojlantirish
  - Mayda motorika rivojlantirish
  - Sensormotorika rivojlantirish
  - Madaniy-gigenik ko`nikmalarni rivojlantirish.
3. MTQDT talab va indikatorlari to`liq kiritildi va mazmun o`zgardi.
4. Mavzular dastur mazmuni va MTQDTga mos qilib o`zgartirildi.
5. Barcha yosh davrlari bo`yicha berilgan matn oxiriga bola o`quv yili davomida egallashi lozim bo`lgan indikatorlar kiritildi.
6. Ilk va kichik guruhda bir yilga 36 ta mavzu berilgan bo`lib, haftaning birinchi yarmida bolalarga yangi harakatlar o`rgatiladi, haftaning ikkinchi yarmidagi mashg`ulotda ushbu harakatlar mustahkamlanadi.
7. O`rta, katta va tayyorlov guruhlarida bir yilga 72 tadan mavzular berildi.
8. Harakatlari o`yinlar barcha guruhlarda o`yin faoliyatini bo`limida berildi.

## **2-yo`nalish: IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH YO`NALISHI**

Takomillashtirilgan “Bolajon”

1. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo`nalishining mazmuni DTlariga moslab aniq va tushunarli qilib berildi.
2. Ushbu yo`nalish bo`yicha berilgan mavzular DTlarining indikatorlaridan kelib chiqib yozildi.
3. O`rta, katta va tayyorlov guruhlari mazmuniga o`g'il va qiz bolalarga xos bo`lgan fazilatlarni shakllantirish masalasi kiritildi.

## **3-yo`nalish: NUTQ, O`QISH VA SAVODGA TAYYORGARLIK**

1. Nutq, o`qish va savodga tayyorgarlik yo`nalishning 2 ta kichik sohasi ham kiritildi:

- Nutq.
- O`qish va savod malakalarini egallash.

2. Talab va indikatorlar to`liq olindi.

Nutq, o`qish va savodga tayyorgarlik yo`nalishining mazmuni DTlari asosida o`zgartirildi.

- . Mavzular DT larining indikatorlari asosida aniq, qisqa va tushunarli qilib yozildi.

## **4-yo`nalish: BILISH JARAYONI VA ATROF-MUHIT TO`G`RISIDAGI BILIMLARGA EGA BO`LISH**

-Takomillashtirilgan “BOLAJON”

- Yo`nalishning nomidagi “olam” so`zi “muhit” deb o`zgartirildi, “va uni anglash” so`zleri olib tashlandi.

3ta kichik soha ham kiritildi:

- Elementar matematik ko`nikmalar va bilimlarni rivojlantirish.
- Atrof-muhitni o`rganish va anglash
- Ijod
- MTQDT berilgan talab va indikatorlar to`liq olindi.
- Mavzular MTQDT mos qilib o`zgartirildi, ayniqsa tasviriy faoliyat va tabiat bilan tanishtirish bo`yicha berilgan mavzular tubdan o`zgardi.

**NIMALAR O`ZGARMADI?**

**3-yo`nalishning badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo`limi mazmuni va mavzulari deyarli o`zgarmadi.**

**4-yo`nalishning Elementar matematik ko`nikmalar va bilimlarni rivojlantirish kichik sohasining mazmuni o`zgarmadi, mavzulari bola tilidan – sodda qilib yozildi.**

**MAVJUD QO`LLANMALARNING QAYSILARIDAN FOYDALANISHDA DAVOM ETISHIMIZ MUMKIN?**

Z.Y.Ibrohimova tomonidan tayyorlangan Badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo`yicha mashg`ulotlar ishlanmalari va xrestomatiyalardan, Z.A.Rahmonqulova tomonidan “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasav-vurlarni shakllantirish” bo`yicha kichik, o`rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun ishlab chiqilgan metodik qo`llanmalardan foydalanishimiz mumkin deb o`ylaymiz.

## **II bob yuzasidan xulosa**

Ta'lim tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachi tomonidan tuziladi . Reja oy boshlanishi dan bech kun avval metodistga tasdiqlash uchun berilsadi , oylik ish reja dasturida avvalo haftalik mashg'ullotlar jadvali , bir oylik rejaning taqsimoti beriladi . Har o'n bech kunga mo'ljallangan badtarbiya mashiqlari,ota - onalar bilan bilan ishslash rejasi va kundalik faoliyatida ertalabki soat ,mashg'ulot, sayr kunning 2- yarmida belgilangan vazifalar shular jumlasidndir.

- Takomillashtirilgan dastur tuzilishi jihatidan tarbiyachiga kundalik ta`lim-tarbiya ishlarini rejashtirishda bir qator afzalliklar yaratadi: matn tushunarli, yo`nalishlar bo`yicha berilgan;
- Barcha yo`nalishlar, kichik sohalar, bo`limlar keng yoritilgan va indikatorlar to`liq qamrab olingan;
- Barcha vazifalar bola shaxsini bevosita tarbiyalashga qaratilgan;
- Milliy ruh va ma`naviyatga alohida urg`u berilgan;
- Dasturda umumiy o`rta ta`lim maktablarining boshlang`ich sinflari uchun joriy etilgan Davlat ta`lim standartlari o`rtasida uzviylik tamoyillariga alohida ahamiyat berilgan.

## **XULOSA**

Maktabgacha ta`lim muassasalari ta`lim-tarbiyaviy va sog`lomlashtirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhalidagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, tadqiqotlari asos bo`lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi hamda maktabgacha ta`lim muassasalarida olib borilgan kuzatishlar asosida quyidagilarni bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoillariga qo`shimcha qilish mumkin deb o`ylaymiz.

1.Bolalarning har bir yosh guruhlardagi birgalikda hayot tarzi. Bu tizim asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni

jamoatchilik ruxida tarbiyalash uchun bir xil sharoitni ta'minlash ko`zda tutiladi.

2.Guruhlarni komplektlashning yosh tamoili bolalarning har bir guruhida bir yoki ikki yoshning bo`lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

3.Guruhnинг bolalarini har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu tamoilga ko`ra guruhlar xonalarini va maydonchalarini pedagogik gigienik va estetik talablarining yagona birligi asosida jixozlash va obodonlashtirish amalga oshiriladi.

4.Kun tartibining doimiyligi va yosh xususiyatiga bog`liqligi. Ilk va maktabgacha tarbiya yoshida asosiy hayotiy faoliyat ritmi bir xil emas. Ilk yoshdagи birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o`z xatti- harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining yo`qligi nochorligi ular hayotini tashkil etishda har bir bolaga parvarish uchun ko`p vaqt ajratish zaruratin keltirib chiqaradi. Kun tartibini bajarishda o`z-o`zini tashkil eta olish ko`nikmasi tufayli mashg`ulotga, o`yinga, mehnatga vaqt qoladi.

Bolalar hayoti bu faqat kattalarning bo`lg`usi hayotiga tayyorgarlik emas, bolalalik davri bolalarni qiziqtiradigan va uni zavqli qiladigan, ular tomonidan ijtimoiy tajribaning o`zlashtirilishini ta'minlaydigan rang-barang faoliyat bilan qiziqarlidir.

5.Turli faoliyat ko`rinishlarini (o`yin, mehnat, ta'lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o`rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko`ra bu faoliyat turlarini qo`shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakillanishidagi roli.

Kun mobaynida o`yinlar, mehnat va ta'lim uchun vaqt ajratiladi. Ularning bolalar bog`chasidagi turli guruhlardagi o`rni bolalarning yosh imkoniyatlariga yakka tarzda yoki guruh bo`lib harakat qila olish ko`nikmasiga, bir-birlari bilan muloqotda bo`la olish malakasiga bog`liq. O`yin faoliyati va boshqa faoliyat turlarining asta-sekin kuchaya borishi ham ahamiyatga ega bo`la boradi.

6.Yosh guruhlarda bolalar hayotini ular hayoti va sog`ligini muhofaza etishga yo`naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur printsip asosida yasli bog`chalaridagi yosh guruhlari uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo`llanma va materiallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish sistemasi va harakat faoliyati rejimi joriy etiladi. Tarbiyachilar, enagalar va bolalar, shuningdek bolalar o`rtasidagi munosabatlarda vazminlik, oljanoblik, insonparvarlik ruhi hukum suradi. Ziddiyatlar oldi olinadi va odilona hal etiladi, bolalar asabiyligining payi qirqiladi.

7.Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarni jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko`zda tutadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Mirziyoyev. Sh .M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq . – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev. Sh .M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar . – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev. Sh .M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev. Sh .M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz.. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1999.–32 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni, Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:O‘zbekiston, 1997. – 20-29 b.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi «2004- 2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi to`g`risida» gi Farmoni. Ma`rifat, 2004yil 22-may.
8. Umumiyo o`rta ta`limning Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. – Toshkent: Sharq, 2004. –400 b.
9. Abdullaeva M. Bolalar o`yinlarida o`zaro munosabatlar. Boshlang`ich ta`lim. -T.: 2000. №3. – 22b.
10. Abdurahmonova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped. fanl. nom. diss – T.: 1998. – 171 b
116. Z.A.Rahmonqulova va boshqalar. “Maktabgacha ta`lim muassasa tarbiyachilarini o`qitish bo`yicha seminar modullari”, trener uchun qo`llanma, majmua, tarqatma materiallar. T.: 2010.
- 12.L.Mo`minova va boshqalar. “Defektologning kundalik kitobi” to`plami. T.: 2011.
- 13.Maktabgacha ta`lim muassasalarida jismoniy tarbiya. Tuzuvchi-mualliflar: T.S.Usmonxo`jaev, S.T.Islomova. T.: 2006.
- 14.Maktabgacha ta`lim muassasalarida ekologik ta`lim-tarbiya. Dastur va o`quv qo`llanma.Tuzuvchi: N.Ravshanova. T.: 2006.

- 15.“Ota-onalarga mактабгача ўошдаги балаларнинг гигиеник тарбијаси хақида”. Тузувчи: D.J.SHaripova. Т.: 2007.
- 16.Z.A.Rahmonqulova. “Мактабгача ўошдаги балаларда ilk математик тасаввурларни шакллантирish”. Методик оқ'ланма. Т.: 2007.
- 17.“Raqs элементлари орқали балаларни жисмоний ривожлантирish”. Методик оқ'ланма. Тузувчilar: M.Karimov., M.Ikromova. Т.: 2008.
- 18.“Мактабгача ва макtab ўошидаги балаларни овқатлантирish”. Илмиy – uslubiy оқ'ланма, A.R.Sodiqov, A.Mirzaahmedov. Т.: 2008.
- 19.“Балаларни мактабга тайyorlashda noan`anaviy o`yinlardan foydalanish” Методик оқ'ланма, G.Q.Jalolova, T.: 2004.
- 20.“Nutq o`stirish, savodga tayyorgarlik” Тузувчilar: M.Fayzullaeva va b.
- 21.Z.A.Rahmonqulova, M.Fayzullaeva., “Мактабгача ўошдаги балаларни атроf-muhit bilan tanishtirish” (*ilk, kichik, o`rta guruhlari uchun*). Методик оқ'ланма, Т.: 2016.
- 22.“Мактабгача та`lim muassasasi tarbiyachisining ta`lim-tarbiyaviy ish rejasing yuritilishi yuzasidan yo`riqnomasi” Т.: 2016.
23. Мактабгача ўошдаги балалар та`lim-tarbiyatsiga qo`yilgan davlat talablari. – Т.: O`z PRFITI, 2000. – 48 b.
24. Мактабгача ўошидаги балалар та`lim-tarbiyasiga qo`yiladigan Davlat talablari //Мактабгача та`lim. – Т.: 2000. №1. 9 – 12-b.
25. Мактабгача та`lim muassasalari.(балалар bog`chalari) uchun dasturlar . – Т.: O`zPFITI, 1995-1996.
26. Oxunjonova S.A. Bolalarni mакtab ta`limiga tayyorlash haqida (tarbiyachi va ota-onalar uchun tavsiyalar ) –Т.: O`qituvchi, 1999. – 78 b.

## MAVZU: DAVLATGA QARASHLI VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI



### REJA:

Maktabgacha ta'lrim  
muassasalarining boshqarish  
usullari

Davlatga qarashli va nodavlat  
maktabgacha ta'lim muassasalarini  
tashkil etish.



## **MTM turlari**

**a) Davlatga qarashli**

**b)**

**nodavlat**

**v) Sherikchilik  
asosidagi**

### **Davlatga qarashli MTM lar**

Davlat muktabgacha ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrda qabul qilgan 222-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasida davlat MTM lari to'g'risida" gi Nizom asosida O'z faoliyatini tashkil etadi.





Maktabgacha ta'lif muassasasi muassis tomonida tashkil etiladi va qonun xujjalarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.



- Maktabgacha ta'lif uzliksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab beradi.






Respublikamizda  
davlat maktabgacha  
ta'lif muassasalari  
bilan bir qatorda  
nodavlat  
maktabgacha ta'lif  
muassasalari ham  
faoliyat yuritadi.

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)


- Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjatlarga amal qiladi.





- ❖ Ta'lif muassasasini ustavini ishlab chiqish tartibiga muvofiq ishlab chiqiladi, u muassasa tomonidan tasdiqlanadi va tegishli davlat organlari ro'yxatidan o'tkaziladi.
- ❖ Nodavlat matabgacha ta'lif muassa-Sasi muassasa sifatidagi tashkiliy Huquqiy shaklda tashkil etiladi va qonun Hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritadi.






- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalari quyidagilar:
- Bolani muhofaza qilish
- Bolaning shaxsi asoslarini shakllantirish  
Bolaning nuqsonlarini zarur tarzda tuzatish va h.k



Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan nodavlat mulkchilik shaklidagi yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining muassislari bo'lislhlari mumkin.





**NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI  
YURIDIK SHAXS MAQOMIGA EGA BO'LADI.  
MUSTAQIL MOLIYA XO'JALIK FAOLIYATINI AMALGA  
OSHIRADI, DUMALOQ MUHRGA, BURCHAKLI  
SHTAMPGA VA O'Z LOGOTIPI YOZILGAN  
BLANKAGA EGA BO'LADI.**



## nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari

- Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini akreditatsiya qilish vakolati davlat organi tomonidan, attestatsiya asosida amalga oshiriladi.
- Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif tarbiya dunyoviy xususiyatga ega bo'ladi



**Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif  
mazmuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi.  
Muassasa o'z dasturidan foydalanish haqlidir**




**nodavlat mактабгача та'lim  
muassasalarining ish rejimi va bolalarning  
u yerda qancha vaqt bo'lishi muassasa  
ustavida hamda muassasa rahbari bilan  
ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi  
shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomada  
belgilanadi**



**Nodavlat mактабгача  
та'lim muassasasida  
bolalarni o'qitish va  
tarbiyalash davlat tilida  
va "davlat tili haqida"gi  
O'zbekiston  
Respublikasi Qonuniga  
muvofiq boshqa tillarda  
olib boriladi.**





Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalnuvchilariga tibbiy yordam ko'rsatish shtatdagi yoki sog'lioni saqlash organlarining shartnoma asosida maxsus biriktirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.



- **Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ta'limning uzliksizligini ta'minlash maqsadida shartnoma asosida o'z faoliyatini umumiyl o'rta ta'lim muassasalari bilan birgalikda amalga oshirishi mumkin.**



• **Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida shartnoma asosida o'z faoliyatini umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan birgalikda amalga oshirishi mumkin.**



**2 yoshdan 6 yoshgacha  
qabul qilinadi**

## ***Kurs ishining himoyasi***

Kurs ishi sifati va uni bajarishdagi talabaning faolligi, bilim va ko‘nikmalarini baholashning o‘ziga xos shakllaridan biri ishning himoyasidir. Bajarilgan ishni chuqur tushunishi, taklif etilgan yechimlarni har tomonlama asoslab berishi qobiliyatini shakllantirishda kurs ishining ximoyasi muhim o‘rin tutadi. Kurs ishi himoyasi kafedra tomonidan belgilangan 2-3 o‘qituvchidan tashkil topgan hay’atda, kurs ishi rahbari va guruh talabalari qatnashuvida tashkil qilinadi. Ochiq himoya guruh talabalariga shu guruh a’zolari tomonidan bajarilgan ishlar bilan tanishishiga imkoniyat berishi bilan bir vaqtida, ishi rahbarlarini himoya qiliniyotgan ishilarga bir xil talab bilan yondashishga olib keladi.

Kurs ishlarining ximoyasi kafedra a’zolaridan tuzilgan kichik xay’at (raxbar, 1ta a’zo, 1 ta opponent) ishtirokida o‘tkazilmog‘i lozim.

Kurs ishi opponentlik qilgan shaxsning yozma taqrizida ishning qiymati, uning belgilangan talablarga javob berish darajasi ko‘rsatilgan bo‘lib, u kurs ishining baholanishida muhim o‘rin tutadi.

### **Maktabgacha ta`limda boshqaruv va menejment fanidan kurs ishini baholash mezoni**

Himoya talaba tomonidan bajarilgan kurs ishisi bo‘yicha 8-10 minutli ma’ruza va savol javobdan iborat bo‘ladi. Ma’ruzada ishning mohiyatini talaba har tomonlama yoritib berishi kerak. Savollar himoyada qatnashayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan beriladi.

Kurs ishi 5 ballik tizimda baholanadi.

<b>Nº</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Maksimal ball</b>	<b>Talabalarning to‘plagan bali</b>
<b>1</b>	Adabiyotlar ustida ishlash	0-10 ball	____ - ball
<b>2</b>	Nazariy qismning tayyorlanishi	0-10 ball	____ - ball
<b>3</b>	Amaliy qismining rasmiylashtirilishi	0-15 ball	____ - ball
<b>4</b>	Xulosa va tavsiyalarning ishlab chiqish darajasi	0-5 ball	____ - ball
<b>Jami</b>		<b>40 ball</b>	____ - ball
<b>Kurs ishi himoyasining baholanishi</b>			
<b>1</b>	Talabalarning himoya qilish darajasi, bayon etishi.	0-30 ball	____ - ball
<b>2</b>	Savollarga aniq va to‘liq javob berishi.	0-30 ball	____ - ball
<b>3</b>	<b>Jami:</b>	<b>60 ball</b>	
	<b>Hammasi:</b>	<b>100 ball</b>	



### **Nigmatova Mavjuda Maxmudovna 1964-yil**

Buxoro shahrida tug'ilgan. Buxoro Davlat universitetining “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o’qituvchisi lavozimida 35 yildan ortiq ishlab kelmoqda.

M.M.Nigmatova ko’p yillik tajribaga ega ilg’or pedagog sifatida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga pedagogik mahorat, maktabgacha pedagogika, tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi fanlaridan saboq berib kelmoqda.

Izlanuvchan pedagogning maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari va o’qituvchilar uchun “Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat fanidan amaliy mashg’ulotlar uchun ko’rsatma”, “Sharq mumtoz adabiyotimizda ustoz-shogird munosabatlari” mavzusida monografiya, «OO’Yu guruh rahbarlari ishini tashkil etish” yuzasidan ko’rsatma, “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi” nomli bir qator metodik hamda “Tasviriy faoliyatga o’rgatish”nomli o’quv qollanmalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilgan.



